

UDK: 34(045)(575.1)

ORCID: 0000-0002-6153-3893

XUSUSIYLASHTIRISH TUSHUNCHASINING IQTISODIY VA HUQUQIY TABIATI

Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası o'qituvchisi

e-mail: d.imomniyozov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xususiylashtirish tushunchasining kelib chiqish tarixi, mazmun-mohiyati, mazkur tushunchasining yuridik hamda iqtisodiy jihatlarini ochib beriladi. Mazkur tadqiqot ishida xususiylashtirish tushunchasi qiyosiy-huquqiy metod asosida tahlil qilinadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, jamiyatda xususiy mulkni ko'paytirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirishning samarali usullaridan biri bu davlatga qarashli bo'lgan aktivlarni xususiylashtirish sanaladi. Xususiylashtirish nafaqat davlat mulkni begonalashtirish, balki yangi iqtisodiy tuzilmalarni shakllantirish, xo'jalik jamiyatlariga ular uchun avval yopiq bo'lgan iqtisodiyot sohalarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdir. Xususiylashtirish iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, raqobatni rag'batlantirish, davlat va mahalliy byudjetlarni to'ldirish muammolarini hal qilishga imkon beradi.

Xususiylashtirish natijalari, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat va kommunal mulkni jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiga ajratish munosabatlarini huquqiy tartibga solish mexanizmining qanchalik mukammalligiga bog'liq. Xususiylashtirish tushunchasi esa iqtisodiy va huquqiy jihatdan talqin qilinadi.

Shu jihatdan ushbu maqolada xususiylashtirish tushunchasi, uning iqtisodiy, huquqiy jihatlarini tahlil qilinadi. Maqolada doktrinal va normativ konsepsiyalarning xususiylashtirishga turlicha yondashuvlari yoritiladi. Shu munosabat bilan xususiylashtirish atamasini huquqiy kategoriya sifatida, ammo iqtisodiy asoslashni hisobga olgan holda kengaytirilgan talqin qilish zarur degan xulosaga kelishdi.

Kalit so'zlar: *xususiylashtirish, davlat mulki, aktivlar, xususiy mulk, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, davlat ulushi, xo'jalik jamiyati, ulush, aksiya.*

ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ ХАРАКТЕР ПОНЯТИЯ ПРИВАТИЗАЦИИ

Имомниёзов Дониёрбек Бахтиёр угли

Преподаватель кафедры гражданского права
Ташкентский государственный юридический
университет

e-mail: d.imomniyozov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет раскрыта история возникновения, сущность, юридические и экономические аспекты понятия приватизация. В данной исследовательской работе анализируется понятие приватизации на основе сравнительно-правового метода. Известно, что одним из эффективных способов развития рыночной экономики, увеличения частной собственности в обществе, уменьшения вмешательства государства в экономику является приватизация государственных активов. Приватизация-это не только отчуждение государственной собственности, но и формирование новых хозяйственных структур, создание возможности хозяйственным обществам осуществлять предпринимательскую деятельность в ранее закрытых для них отраслях экономики. Приватизация позволяет решить проблемы монополизации экономики, стимулирования конкуренции, пополнения государственных и местных бюджетов.

Результаты приватизации, ее успешность во многом зависят от того, насколько совершенен механизм правового регулирования отношений разделения государственной и муниципальной собственности на собственность физических и юридических лиц. С другой стороны, понятие приватизации трактуется экономически и юридически.

В связи с этим в данной статье анализируется понятие приватизации, ее экономические, правовые аспекты. В статье рассматриваются различные подходы доктринальных и нормативных концепций к приватизации. В связи с этим был сделан вывод о необходимости расширенного толкования термина приватизация как правовой категории, но с учетом экономического обоснования.

Ключевые слова: приватизация, государственная собственность, активы, частная собственность, юридическое лицо, физическое лицо, государственная доля, хозяйственное общество, доля, акция.

ECONOMIC AND LEGAL NATURE OF THE CONCEPT OF PRIVATIZATION

Imomniyozov Doniyorbek Bakhtiyor ugli

Lecturer at the Department of Civil Law

Tashkent State Law of University

e-mail: d.imomniyozov@gmail.com

ABSTRACT

This article will reveal the history of the emergence, essence, legal and economic aspects of the concept of privatization. This research paper analyzes the concept of privatization based on the comparative legal method. It is known that one of the effective ways to develop a market economy, increase private property in society, and reduce state intervention in the economy is the privatization of state assets. Privatization is not only the alienation of state property, but also the formation of new economic structures, the creation of an opportunity for economic companies to carry out entrepreneurial activities in sectors of the economy that were previously closed to them. Privatization makes it possible to solve the problems of monopolizing the economy, stimulating competition, replenishing state and local budgets.

The results of privatization, its success largely depend on how perfect the mechanism of legal regulation of relations between the division of state and municipal property into the property of individuals and legal entities. On the other hand, the concept of privatization is interpreted economically and legally.

In this regard, this article analyzes the concept of privatization, its economic, legal aspects. The article discusses various approaches of doctrinal and normative concepts to privatization. In this regard, it was concluded that the need for an expanded interpretation of the term privatization as a legal category, but taking into account the economic justification.

Key words: *privatization, state property, assets, private property, legal entity, individual, state share, economic company, share.*

KIRISH

Iqtisodiyotdagi nazariy o'zgarishlar, davlat korxonalari ko'pincha samarasiz va iste'molchi talablariga javob bermasligi sharoitida 1980-yillardan boshlab xususiylashtirishni davlat va jamiyat hayotida muhim dasturga olib keldi. Xususiylashtirish davlat mulkini xususiylashtirish investorlarga to'g'ridan-to'g'ri sotishdan tortib davlat-xususiylashtirish sheriklik shakllari kabi bir qancha shakllarda amalga oshirilishi

mumkin. Yirik xususiylashtirishlar Yevropa, Lotin Amerikasi, Xitoy hamda Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq kommunistik iqtisodida sodir bo'ldi. Xususiylashtirishdan tushgan daromadlar xalqaro miqyosda 1980-yillarning oxiridan sezilarli darajada oshdi. 1988-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda davlat mulkini sotishdan tushgan daromad taxminan 3,634 milliard dollarni tashkil qilgan. Iqtisodiyotning ta'sir ko'rsatgan asosiy tarmoqlari nuqtai nazaridan, xususiylashtirishlar, ayniqsa, telekommunikatsiya, transport va logistika (asosan, temir yo'llar, aviakompaniyalar va aeroportlar), boshqa kommunal korxonalar (ayniqsa, energetika kompaniyalari) va moliyada sodir bo'ldi [1, 1-b].

Bundan o'ttiz yil oldin O'zbekistonda fuqarolik huquqi uchun oldin noma'lum bo'lgan yangi institut – xususiylashtirish vujudga keldi. Bu esa o'z navbatida yangi fuqarolik huquqiy munosabatni tartibga solishni taqazo etdi. Xususiylashtirish, qonun ustuvorligi rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi, davlat byudjetni to'ldirish manbai bo'lishi, davlatni iqtisodiyotga aralashini kamaytirish vositasi bo'lishi kerak edi. Shu munosabat bilan 1991-yilda Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun shu kungacha bo'lgan xususiylashtirish jarayonining asosiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosi hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida xususiylashtirish anchagina jadal surat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra hozirda 450 dan ziyod davlat aktivlariga (jumladan 40 dan ortiq aksiyalar paketi, 130 dan ziyod ulushlar va 300 dan ortiq ko'chmas mulk obyektlari) nisbatan, xususiylashtirish jarayonlari ketayotganligi fikrimizning isboti hisoblanadi [2]. Shu bilan birga turli internet nashrlarida xususiylashtirish bilan bog'liq nizoli holatlarning ortayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi raqamlarning o'zi ushbu sohaning hozirda dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Material va metodlar

Ushbu maqolani yozishda qiyosiy-huquqiy tadqiqotni amalga oshirishda asosan umumiy metodlardan induksiya va deduksiya (induction and deduction methods), tarixiylik va analogiya kabi metodlar qo'llanilgan bo'lsa, maxsus-yuridik metodlardan qiyosiy-huquqiy tahlil metodi foydalanilgan.

Birinchidan, tadqiqot umumiy mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, dastlab, xalqaro tajriba va milliy qonunchilikning sohaga doir holatini va o'ziga xos jihatlari o'rganib chiqish orqali induksiya metodi qo'llanilgan. Keyin esa xususiylashtirish umumiylikka o'tish orqali, ya'ni deduksiya metodini qo'llab, har bir davlatdagi farqli va o'xshash jihatlardan kelib chiqib, umumiy holatlar bo'yicha sohadagi milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun tavsiyalar berib o'tilgan.

Ikkinchidan, tadqiqot ishida qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanilgan bo‘lib, asosan xorijiy davlatlar tajribasi va milliy qonunchilik amaliyotini qiyoslash, analiz va sintez qilish orqali amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari

Yuridik adabiyotlarda xususiylashtirish tushunchasini ikki ma’no – huquqiy va iqtisodiy jihatdan ko‘rib chiqish kerak.

Iqtisodchilar xususiylashtirishni xususiy mulk davlat mulkiga o‘tadigan milliylashtirishga qarama-qarshi faoliyat deb bilishadi. Xususiylashtirish va milliylashtirish davlatning iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga imkon beradigan iqtisodiy mexanizmlardir. Shu bilan birga, xususiylashtirish va milliylashtirishning asosiy omili mulkni boshqarish samaradorligi hisoblanadi.

Xususiylashtirish tushunchasi (lotincha *privatus* so‘zidan olingan) birinchi marta 1976-yilda amerikalik tadqiqotchi Robert V. Puul tomonidan Reason Foundation davriy byulleteni uchun tayyorlagan nashrlaridan birida muomalaga kiritilgan. Biroq bu tushunchaning terminologik kelib chiqishi 1969-yilga borib taqaladi, P. Druker o‘zining “An’analarni buzish davri” asarida “reprivatization” so‘zini milliylashtirilgan korxonalarni sobiq egalari qaytarish jarayonini ekanligni yozadi [3, 187-b]. Vebster lug‘atida “xususiylashtirish” atamasining iqtisodiy tushunchasi birinchi marta 1961-yil nashrida paydo bo‘lgan va “korxona maqomini davlat nazoratidan xususiy mulkchilikka o‘zgartirish” yoki “alohida korxona yoki sanoatning xususiy mulkka aylanishi” deya tariflangan [4, 188-b]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiylashtirish jarayonini o‘rgangan Meri Sherli va Jon Nillisning fikriga ko‘ra, xususiylashtirishning muvaffaqiyatli shartlari bozorga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat bo‘lib, davlat ham, xususiy sektor ham samaradorlikni oshirishini, kapital bozorining yetarli darajada ta‘minlanishini, shuningdek xaridorga sotilishi mumkin bo‘lgan firmalarni aniqlash uchun yetarli vaqt davrini beradi [5, 129-b].

Iqtisodiy nuqtayi nazardan xususiylashtirishni aniqlashga yondashuvda G‘arbiy Yevropa va AQShda ham birlik yo‘q. Olimlar xususiylashtirish sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan harakatlarning keng ro‘yxatini ilgari suradilar. Amerikalik mualliflar xususiylashtirishni “ishlab chiqarish tizimini yoki davlat ehtiyojlarini davlat organlaridan xususiy sektorga ta‘minlash tizimini o‘tkazishga (o‘zgartirishga) qaratilgan strategiya va usullar” deb tushunadilar [6, 48-b]. Kanadalik olimlar xususiylashtirish nafaqat moddiy boyliklarni, ishlab chiqarish va ta‘minot tizimlarini davlat kompaniyalaridan xususiy korporatsiyalar va jismoniy shaxslarga berish, balki davlat tomonidan tartibga solish tizimini zaiflashtirish orqali bozor rolini kuchaytirish jarayoni degan xulosaga kelishadi [7, 128-b]. Ingliz huquqshunoslarining

tadqiqotlarida xususiylashtirish “davlat mulkini xususiy, nodavlat mulkiga aylantirish” vazifasini bajaradi, degan fikr izchil davom ettiriladi.

“Xususiylashtirish” atamasi g‘arb mutaxassislari tomonidan ikki xil – keng va tor ma’noda talqin qilinadi. Keng ma’noda bu jarayon iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy siyosatining ayrim jihatlarini ifodalaydi, masalan davlat sektorida o‘rish sur‘atlarining sekinlashishi yoki ishlab chiqarishning qisqarishi, bu esa xususiy sektor ulushining oshishiga olib keladi. Tor ma’noda “xususiylashtirish” atamasi ma’lum bir davlat korxonasi xo‘jalik yurituvchi subyekt, yakka tartibdagi tadbirkorlar mulkiga to‘liq yoki qisman o‘tishni anglatadi [8, 76-b]. Tor ma’noda xususiylashtirishning umumiy mezonini davlat sektori ulushini kamaytirish va funksiyalarini cheklashdan iboratdir.

V.M. Ignatov xususiylashtirishning mohiyatini keng va tor ma’noda ochib beradi: “Xususiylashtirish keng ma’noda davlat sektorini qisqartirish va xususiy sektorning hissasini oshirish orqali iqtisodiyotni tartibga solish institutlaridan biri sifatida tushuniladi. Xususiylashtirish atamasining tor ma’nosida kapitalga egalik huquqini ma’lum jismoniy va yuridik shaxslarga to‘liq yoki qisman o‘tkazishni anglatadi” [9, 11-b].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari tahlil qilingan holda xususiylashtirishning iqtisodiy xususiyati haqida xulosa shu bo‘ldiki, davlat o‘ziga tegishli bo‘lgan aktivlarni xususiy sektorga o‘tkazish orqali o‘zining boshqaruv funksiyalarini qisqartirib, bozor munosabatlariga aralashuvini kamaytiradi. Shu orqali bozorga o‘zini o‘zi tartibga solish imkoniyatini taqdim etadi.

Ta’kidlash kerakki, xususiylashtirishning huquqiy tushunchasi iqtisodiy ta’riflarga qaraganda ancha tor sanaladi. V.S.Belixonning fikricha, “xususiylashtirish” atamasining huquqiy tushunchasi uni amaliy qo‘llash uchun yaroqli qiladigan to‘liq va aniq belgilar majmuasiga ega bo‘lishi kerak, Ya’ni qonun bilan qat’iy belgilangan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi va boshqalar talqin qilishda noaniqlik va shunga mos ravishda amaliy qo‘llanilishidagi farqlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun chegaralarga (tor ma’noda xususiylashtirish tushunchasi) ega bo‘lishi kerak. Xususiylashtirishni keng ma’noda ko‘rib chiqish faqat ushbu toifaning ko‘p qirrali va noaniqligini ko‘rsatishi mumkin (masalan, xususiylashtirish siyosiy, tijorat, psixologik va boshqa jihatlariga ega bo‘lishi mumkin) [10, 27-b].

Yuridik adabiyotlarda “xususiylashtirish” atamasining paydo bo‘lishi davlat boshqaruvi shaklini yoki alohida korxona yoki sanoat mulkini xususiyga aylantirish jarayonini ifodalash uchun ishlatilgan. Keng ma’noda xususiylashtirish - bu davlatning iqtisodiy sohadagi faoliyati ko‘lamini qisqartirish yoki xususiy sektorning

mablag'larga egalik qilishda yoki tadbirkorlik faoliyatida rolini kuchaytirishga qaratilgan turli xil tadbirlardir.

Gerbert Biner xususiylashtirish keng ma'noda davlatdan o'z fuqarolariga mulk huquqini har tomonlama o'tkazish, davlat xizmatlarini xususiy sektorga taqsimlash, shuningdek, davlat organlarining faol ishini rad etish, deb hisoblaydi. [11, 63-b].

Yuridik nuqtai nazardan, S.I. Komaritskiy: "Xususiylashtirish deganda, odatda, mulk huquqini huquqiy tartibga solish sohasi bilan bog'liq bo'lgan va muayyan mulkka egalik huquqining tugatilishi va xususiy mulk huquqining paydo bo'lishini anglatuvchi yuridik institut tushuniladi" [12, 7-b]. Shuni ham ta'kidlash kerakki, xususiylashtirish har doim davlat mulkiga bo'lgan huquqni bekor qilishni nazarda tutganligi sababli, bunday munosabatlar ommaviy xususiyatga ega. Bunda mulkni xususiylashtirish orqali o'tkazish bo'yicha umumiy, ommaviy ravishda belgilangan qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Bunda xususiylashtirish natijasida respublika yoki munisipal mulkka tegishli bo'lgan xususiylashtirish obyektlariga bo'lgan mulk huquqini maxsus belgilangan tartibda xususiy mulkka o'tkazish amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi Fuqarolik kodeksining 182-moddasida mulk huquqini vujudga kelish asoslaridan biri sifatida davlat mulkini xususiylashtirishni belgilaydi. Biroq kodeks faqat mazkur asosni belgilash bilan cheklanadi. Xususiylashtirish qanday asoslarda, qanday tartibda, qanday shartlarda amalga oshirilishi maxsus qonun hujjatlarining huquqiy tartibga solish predmeti doirasida amalga oshiriladi.

Yana bir olim H.A.Gertsevning fikricha, xususiylashtirish deganda respublika yoki munitsipal mulkda bo'lgan qonun bilan tartibga solinadigan mulkni jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga haq evaziga va (yoki) bepul o'tkazish tartibini tushunish kerak [13, 1735-b]. Mazkur xulosaga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Negaki xususiylashtiriladigan obyektlar toifasi turlicha bo'lib, ularning hammasini ham tekinga xususiylashtirish mumkin bo'lmaydi.

Bizningcha, xususiy mulk huquqini qo'lga kiritishning maxsus usuli sifatida respublika va munisipal mulkni xususiylashtirish konsepsiyasini M.T.Abaev ochib beradi. Uning fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, fuqarolik huquqi uchun xususiylashtirish tushunchasining kaliti xususiylashtirishni aniq jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga ommaviy ravishda egalik qilingan mulkni qaytarib beriladigan begonalashtirish sifatida belgilashdir. Boshqacha aytganda, xususiylashtirishga mulk huquqini vujudga keltiruvchi va bekor qiluvchi ma'lum bir asos sifatida qarash lozim.

Mazkur tushunchaga yuridik tarif Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunda ham keltirilgan. Ushbu qonun ikki alohida

tushunchasini, ya'ni davlat tasarrufidan chiqish va xususiylashtirishni alohida tariflaydi. Qonunning 1-moddasiga asosan:

– davlat tasarrufidan chiqarish — davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

– xususiylashtirish — jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Ko'rishimiz mumkinki, qonun umumiy ma'nodagi xususiylashtirish jarayonini ikkiga ajratib, davlatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan davlat tasarrufidan chiqish atamasini, boshqa turdagi aktivlarga nisbatan xususiylashtirish atamasini qo'llamoqda. Bizningcha, xususiylashtirish tushunchasi keng ma'no ifodalaydi. Zotan ushbu tushuncha barcha turdagi davlat aktivlarini begonalashtirishni o'z ichiga oladi [14, 457-bet].

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida joylashtirilgan "O'zbekiston Respublikasining xususiylashtirish to'g'risida qonuni" loyihasida ham ushbu tushunchaga tarif berilgan. Unga muvofiq davlat aktivlarini ushbu Qonunda ko'zda tutilgan tartib va shartlarda xususiylashtirish mulk shaklida tasarrufdan chiqarish xususiylashtirish hisoblanadi [15].

Shuni aytish kerakki, bu konsepsiya xususiylashtirishning umumiy maqsadini, ya'ni xususiylashtirishning obyektlaridan qat'iy nazar o'zida aks ettiradi. Demak, qonun loyihasida berilgan xususiylashtirish tushunchasi uning maqsadidir.

Umuman olganda, ushbu atamaning huquqiy ma'nosida xususiylashtirish respublika va munisipal mulkni yuridik va jismoniy shaxslarning xususiylashtirish mulkiga o'tkazishga qaratilgan xususiylashtirish uslublarining va ular asosida tuzilgan bitimlar ijrosining natijasidir [16, 236-b].

Ushbu institutning o'ziga xos xususiyatlaridan bir xususiylashtirish majburiyatidagi shartnoma faqat xususiylashtirish bitimining yakuniy bosqichida paydo bo'ladi [17, 58-bet]. Fuqarolik huquq va burchlari xususiylashtirish majburiyatida shartnomadan emas, balki xususiylashtirish to'g'risidagi ma'muriy hujjatlardan vujudga keladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, xususiylashtirishning huquqiy kontsepsiyasi, iqtisodiy tarkibiy qismdan ajralgan holda, xususiylashtirish fenomenini aks ettiruvchi mezonlarning butun doirasini to'liq ochib bera olmaydi. Shu nuqtayi nazardan mazkur tushunchaning mazmuni ochib berish uchun uning iqtisodiy xususiyatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan xususiylashtirish – bu davlatga tegishli mulkni haq to'langan holda

begonalashtirishdan iborat bo'lgan huquqiy va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan hodisadir. Tom ma'noda xususiylashtirish instituti mulkka davlatning mulk huquqini tugatish va uni xususiy mulk asosida sotib olish bilan bog'liq munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy normalar majmui sifatida muammoni bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Parker, D. Privatization of State-Owned Enterprises. Oxford Research Encyclopedia of Business and Management. Retrieved 27 Dec. 2022, from <https://oxfordre.com/business/view/10.1093/acrefore/9780190224851.001.0001/acrefore-9780190224851-e-93>.
2. <https://davaktiv.uz/oz>
3. Bel, G. (2006), The Coining of "Privatization" and Germany's National Socialist Party, Journal of Economic Perspectives, 20, 3, 187–194.
4. Bel, G. (2006), The Coining of "Privatization" and Germany's National Socialist Party, Journal of Economic Perspectives, 20, 3, 187–194.
5. Шерли М., Ниллис Дж. Реформа и приватизация государственных предприятий: обобщение опыта / Мэри Шерли, Джон Ниллис. – Мировой банк. Институт экономического развития. – Тбилиси: Издво «КОКА», 1992. – с 129.
6. Kikeri, S. and A. Kolo. 2005. Privatization Trends and Recent Developments. World Bank Policy Research Working Paper. 3765. Washington, DC: World Bank.
7. Диденко А. А. К вопросу о развитии отечественной концепции источников гражданского права // Власть закона. – 2012. – № 3. – С. 124-131.
8. Камышанский В.П. Приватизация предприятий. Право собственности/В.П. Камышанский. – М., 2009. – С - 192.
9. Игнатов В.М. Приватизация государственной собственности в РФ: проблемы правового регулирования: Автореф. дис. канд. юрид. наук / В.М.Игнатов. – М., 2002. – с 19.
10. OECD. 2018. Privatisation and the Broadening of State-Owned Enterprises: Stocktaking of National Practices. Paris.
11. Герцев Д.А. Гражданско-правовое регулирование отношений по приватизации предприятий, находящихся в государственной собственности: Дис. канд. юрид. наук. / Д.А.Герцев. – М., 2008. – С - 200.
12. Комарицкий С.И. Приватизация: правовые проблемы: Курс лекций / С.И.Комарицкий // Исследовательский центр частного права; Российская школа частного права. – М.: Статут, 2000. – С - 94.

13. Black, Bernard & Kraakman, Reinier & Tarassova, Anna. 2000. "Russian Privatization and Corporate Governance: What Went Wrong?" Stanford Law Review, Vol. 52, pp. 1731-1808.
14. Black, Bernard & Tarassova, Anna. 2003. "Beyond Privatization: Institutional Prerequisites for Transition: A Case Study of Russia". In Thomas Heller & Lawrence Liu, eds., The Ecology of Corporate Governance (forthcoming 2003)
15. Ўзбекистон Республикасининг хусусийлаштириш тўғрисида қонуни ID-53179 <https://regulation.gov.uz/oz/d/53179>
16. Savas, E.S. "Privatization and the New Public Management." Fordham Urban Law Journal 28 (2000): 1731.
17. Baltowski, Maciej & Mickiewicz, Tomasz. 2000. "Privatisation in Poland: Ten Years After". Post-Communist Economies, Vol. 12, No. 4.